

**LEGAL**  
SCIENCES.UZ

**YURIDIK FANLARNING  
DOLZARB MASALALARI**

2-JILD | 1-SON

**2026**

**LEGALSCIENCES.UZ**

**YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALARI**

**АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК**

**TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES**

*2-jild 1-son 2026-yil*

**TOSHKENT-2026**

**BOSH MUHARRIR:**

Amirov Zafar Aktamovich — yuridik fanlar doktori

**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**

Yuridik fanlar doktori, professor  
ORCID: 0000-0003-1721-0189

**Imomov Nurillo Fayzullayevich**

Yuridik fanlar doktori, professor  
E-mail: nurillo\_1212@mail.ru

**Hakimov Komil Baxtiyarovich**

Yuridik fanlar doktori, professor  
E-mail: professorkomilkhakimov@gmail.com

**Matkarimov Kudrat Kalandarovich**

Yuridik fanlar doktori, dotsent  
Email: qudrat1979uzb@gmail.com

**Umarxanova Dildora Sharipxanovna**

Yuridik fanlar doktori, professor  
ORCID: 0000-0002-3492-010X

**Fazilov Farhod Maratovich**

Yuridik fanlar doktori (DSc), professor  
ORCID: 0000-0001-8603-1948

**Kadirova Moxigul Xamitovna**

Yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent  
ORCID: 0000-0003-1450-7542

**Pirmatov Otabek Shavkatovich**

Yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent  
ORCID: 0000-0002-0774-661X

**Xudaykulov Feruzbek Xurramovich**

Yuridik fanlar doktori, professor  
ORCID: 0000-0002-4940-3762

**Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich**

Yuridik fanlar doktori, professor  
ORCID: 0000-0003-0947-6163

**Boymurodov Botir Panji o'g'li**

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD).  
ORCID: 0009-0003-7377-3995

**Tojiboyev Akbar Zafar o'g'li**

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD). Dotsent.  
ORCID: 0000-0002-9873-6061

**Nodirov Muzaffar Axmad o'g'li**

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD).  
ORCID: 0000-0003-3733-2554

**Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li**

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD).  
ORCID: 0000-0002-9867-3363

**“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

YURIDIK FANLARNING  
DOLZARB MASALALARI  
2-jild, 1-son (fevral, 2026). - 42 bet.

## MUNDARIJA

<i>Turdiyev Bexruz</i> HUQUQIY NIGILIZM FENOMENI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	5-8
<i>Ergashev Ikrom</i> SOLIQA OID MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK .....	9-17
<i>Rahmatov Elyor</i> BOJXONA NAZORATINI PROTSESSUAL SHAKLDA TASHKIL ETISHDA BOJXONA ORGANLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI .....	18-24
<i>Hakimov Komil</i> IJTIMOIY XAVFLI QILMISHNI SODIR ETGAN SHAXSNI USHLASH VAQTIDA ZARAR YETKAZISHGA DOIR AYRIM MASALALAR .....	25-29
<i>Niyozova Salomat</i> KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNI OLDINI OLIHGA QARATILGAN KRIMINOLOGIK CHORA-TADBIRLAR VA MEXANIZMLAR .....	30-36
<i>Nodirov Muzaffar</i> JINOYAT SUDLOVI TIZIMIDA YUVENAL YUSTITSIYA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	37-41

Article / Original Paper

## IJTIMOY XAVFLI QILMISHNI SODIR ETGAN SHAXSNI USHLASH VAQTIDA ZARAR YETKAZISHGA DOIR AYRIM MASALALAR

**Hakimov Komil Baxtiyarovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti professori

E-mail: [professorkomilkhakimov@gmail.com](mailto:professorkomilkhakimov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazishga doir ayrim masalalar tadqiq etilgan bo'lib, bu borada olimlarning fikrlari tahlil etilgan. Shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish masalasi yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** qilmish, ijtimoiy xavflik, jinoyat, zarar yetkazish, jazo, moddiy, jismoniy, qonunchilik, javobgarlikka tortish.

## SOME ISSUES CONCERNING THE INFLICTION OF HARM AT THE TIME OF DETENTION OF A PERSON WHO HAS COMMITTED A SOCIALLY DANGEROUS ACT

**Khakimov Komil**

Professor of Tashkent State University of Law

**Annotation.** This article examines some issues concerning the infliction of harm at the time of detention of a person who has committed a socially dangerous act, analyzes the opinions of scientists. The relevant proposals and recommendations on the issue of inflicting harm at the time of detention of a person who has committed a socially dangerous act are also given.

**Key words:** Act, social dangerousness, crime, infliction of harm, punishment, material, physical, legislation, prosecution.

Bizga ma'lumki, ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxsni ushlab vaqtida unga zarar yetkazish qilmishni jinoyatligini istisno qiladigan holat sifatida 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksida birinchi marta o'z ifodasini topdi. To'g'ri, 1959 yili qabul qilingan Jinoyat kodeksida (13-moddaning uchinchi qismida) jinoyatchini ushlab zaruriy mudofaaning bir turi sifatida nazarda tutilgan edi[1].

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxsni ushlabda ushlanadigan shaxslar doirasi belgilanmagan. Ushlanadigan shaxslar faqat jinoyatchilar bo'lmasdan balki voyaga yetmaganlar, aqli norasolar, jismoniy kamchiligi bor nogironlar ham bo'lishi mumkin. Shaxslarni ushlab ular faqat ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgandan keyin amalga oshirilmasdan balki jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, jinoyatni amalga oshirish jarayonida ham amalga oshiriladi.

Ushlanadigan subyektlar doirasi belgilanmaganidek ushlovchilar doirasi ham belgilanmagan, ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxsni ushlab bu faqat vakolatli davlat organlarining vazifasi bo'lmasdan har bir fuqaroning burchi va majburiyatidir, shuning uchun

fuqarolar o'zlarining, jamiyat va davlatning manfaatlarini ko'zlab ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxsni ushlashda unga zarar yetkazishlari mumkin, bunga qonun yo'l qo'yadi. Har bir fuqaro ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxsni ushlar ekan bu bilan u bu jinoyatchi tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishini oldini oladi, odil sudlovni amalga oshirilishida ko'maklashadi, fuqarolar, jamiyat va davlat tinchligi va xavfsizligiga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish Kodeksning 39-moddasida aks etgan bo'lib, unga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushlash vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlash uchun zarur bo'lgan choralarning chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Bizningcha, jinoyat sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishning qonuniyligi haqidagi normaning kiritilishi juda o'rinli bo'lgan. Davlat va jinoyat sodir etgan shaxs o'rtasidagi jinoyat-huquqiy munosabatlar jinoiy tajovuz tugallanganidan so'ng barham topmaydi[2]. Jinoyatchini hokimiyat organlariga topshirish talab etilsa, u esa tergov yoki sud organlarida hozir bo'lishdan bo'yin tovlayotgan bo'lsa, uning qarshi harakatini yengish uchun unga zarar yetkazilishi mumkin (ayniqsa og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan holda). Shu tufayli ham tajovuz sodir etgan shaxsni ushlashni tartibga solish zaruriyati paydo bo'ladi.

Jinoyatchini ushlash uchun uni ushlashga harakat qilgan shaxs jinoyat sodir qilinganligini ko'rgan, bilgan bo'lishi kerak. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxsni ushlash, ushlash vaqtida zarar yetkazish jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan ham, jinoyat subyekti yoshiga yetmagan shaxsga nisbatan ham, aqli noraso shaxslarga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Jinoyatchini ushlash vaqtida qurol yoki qurol sifatida ishlatish mumkin bo'lgan har qanday narsalardan foydalanish mumkin. Lekin ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zaruriy chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lishi kerak.

Jinoyatchini ushlashning yana bir asosi jinoyat sodir qilgan shaxsning qochib ketish harakatlarining bo'lganligi, tegishli davlat organlariga topshirishning zarurligi, tegishli davlat organiga borishi zarurligi to'g'risidagi qat'iy talablarni bajarishni istamaganligidir.

Jinoyat sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishda quyidagilar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatni yaratuvchi belgilar hisoblanadi: ushlanayotgan shaxs sodir etgan qilmish ijtimoiy xavfli va g'ayriqonuniy; unga yetkazilgan zarar ushlash uchun zarur, konkret holatlar bilan bog'liq va ushlash uchun zarur harakatlar chegarasidan chetga chiqmaydi[3]. Agar ushlanuvchiga zarar yetkazgan holda ushlashning qonuniyligi shartlaridan birortasiga rioya etmasdan zarar yetkazilgan yoki zarar ushlash uchun zarur choralar chegarasidan chetga chiqib yetkazilgan; ushlanayotgan shaxs jinoyatchi bo'lmagan (uning harakatlari ijtimoiy xavfli bo'lmagan, u jinoyat subyekti hisoblanmagan, jinoyat sodir etmagan); u qarshilik ko'rsatmagan; yoki zarar qonun bilan taqiqlangan vositalar yordamida yetkazilgan bo'lsa, yuqorida zikr etilgan belgilar mavjud bo'lmaydi.

Hozirgi kunda tezkor topshiriq vaqtida zarar yetkazish huquqiga ega bo'lgan davlat organi xodimlari va nazariyachi olimlar o'rtasida topshiriqni bajarish jarayonida qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishini oldini olish uchun zarar yetkazish mumkinligi bahsli holat sifatida qaralib kelinmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, jinoyat qonunchiligimizda bu haqida umuman so'z yuritilmaydi. Shuningdek, qaysi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishini oldini olish uchun zarar yetkazishga yo'l qo'yilmasligi xususida qoidalar qonunchilikda

belgilanmagan. Bugungi kun amaliyoti hamda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu holatlarga aniqlik kiritishni talab etmoqda.

Ushbu masala xususida mualliflarning fikrlari ham mavjud. Jumladan, A.N.Popov “Zarar yetkazish chorasi, faqatgina jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan qonunda belgilangan yoshga yetgan, aqli raso jismoniy shaxsga nisbatan qo‘llash mumkin”[4], deya munosabat bildiradi. Nazarimizda, ushbu fikr biroz mulohazali. Sababi, ayrim holatlarda ijtimoiy xavfli qilmish aqli noraso shaxs tomonidan ham sodir etiladi[5]. Bu kabi holatlarda aqli noraso shaxsga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini qo‘llash zarurati yuzaga keladi [6]. Tezkor topshiriqni bajarish vaqtida ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli qilmishlarni o‘z vaqtida oldini olish maqsadida zarurat bo‘lganida, oxirgi chora sifatida zarar yetkazib ushlash mumkin.

B.V.Sidorov zarar yetkazish asoslari xususida to‘xtalib, “Shaxs og‘ir jinoyat sodir etganida, uning badaniga shikast yetkazib ushlashga yo‘l qo‘yilishi mumkin”[7] ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu muallifning bildirib o‘tgan fikrlari ham biroz mulohazali. Sababi, tezkor vaziyatda sodir etilishi mumkin ijtimoiy xavfli qilmishning og‘ir jinoyat ekanligini aniqlash uchun jinoyat tarkibining barcha tarkibiy elementlarini aniqlash talab etiladi. Amaliyotda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishni oldini olishda har doim ham jinoyatchilar (jinoiy to‘da) og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etishini aniqlashning imkoni bo‘lavermaydi.

Zarar yetkazish asosi yuzasidan V.S.Komissarov mushohada yuritib, “Uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni sodir etgan shaxslarga kuch ishlatish harakatlari umumiy huquqqa ko‘ra yo‘l qo‘yilmaydi. Zarar yetkazib ushlashning zaruriy asosi ijtimoiy xavfliligi og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilganligidir”[8], deya ta’kidlaydi. Ammo, tezkor topshiriq chog‘ida zarar yetkazish amaliyotida uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni sodir etgan holda zarar yetkazish zarurati ham yuzaga keladi.

Bu borada N.G.Kadnikovning fikricha, “Zarar yetkazish uchun asos zo‘ravonlik va kuch ishlatadigan jinoyatlar (asosiy yoki qo‘shimcha obyekt shaxsning jinsiy daxlsizligi, sog‘lig‘i, hayoti hisoblanadigan)ga nisbatan qo‘llanilishi mumkin”[9]. Biroq, ushbu muallif ham tezkor topshiriqni bajarish vaqtida ijtimoiy xavfli qilmish shaklida zarar yetkazish mumkinligini e‘tibordan chetda qoldiradi. I.S.Tishkevich esa, “Alohida fuqarolarga, hokimiyat vakillariga va ichki ishlar idoralari xodimlariga nisbatan zo‘ravonlik, jamoa tartibini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etganda zarar yetkazish mumkinligini” keltirib o‘tadi[10]. Biroq, amaliyotda ijtimoiy xavfli qilmishni oldini olish uchun sodir etilgan zarar yetkazish zarurati yuzaga kelishi nafaqat sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfli qilmishga, balki tezkor xodim (shaxs)ning xulq-atvoriga, so‘nggi chora sifatida boshqa harakatlar sodir etish imkoniyati bor-yo‘qligiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Ijtimoiy xavfli qilmish shaklidagi zarar yetkazishning asosi xususida N.N.Tureskiy, “Zarar yetkazishga yo‘l qo‘yiladi qachonki, shaxs jinoyat sodir etish natijasida yoki sudning ayblov hukmi bo‘lganda”[11], deb ta’kidlaydi. Nazarimizda, bu jinoiylikni istisno qilish holatiga to‘g‘ri kelmaydi, chunki ayrim ijtimoiy xavfli qilmishlarni oldini olish uchun zarar yetkazish zarurati yuzaga kelmaydi. Bu masala xususida A.B.Ivanov o‘rinli ta’kidlaganidek, “Kuch ishlatish huquqi yuzaga kelishi, nafaqat jinoyat sodir etish fakti bilan, ijtimoiy xavflilikning mavjudligi va ochilmagan yoki jazoga tortilmagan jinoyatlar yuzasidan ham mavjud bo‘lishi mumkin”[12]. Boshqacha aytganda, yetkazilgan zararni asosli deb topish uchun, jinoyatchilarning aybi bo‘yniga qo‘yilib, sud hukmini chiqarishni kutish shart emas.

Yu.V.Baulin o'zining ilmiy asarlarida, "Jinoyatchi shaxsga zarar yetkazishning huquqiy va faktik asoslarini yoritib, faktik asos sifatida shaxsning sodir etgan jinoyati hamda uni kechiktirmay zudlik bilan ushlab zarurati"[13], deb ta'kidlaydi. Ushbu fikrlarni V.A.Kazakova, A.S.Mixlin ham qo'llab-quvvatlagan holda "Jinoyatchi shaxsga zarar yetkazishning faktik asosi – u tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish"[14], deya o'z munosabatini bildiradi. Tezkor topshiriqni bajarish vaqtida xavfli holat yuzaga kelganida, fosh bo'lmaslik uchun, zudlik bilan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish zarurati yuzaga keladi. Ammo, bu kabi vaziyatlarda ham zarar yetkazishni istisno qiluvchi holatlar mavjud. Masalan, ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan xo'jalik ishlari bilan bog'liq jinoyatlar sodir etishni oldini olish uchun zarar yetkazish talab etilmaydi. Sababi, avvalo ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslar jinoyatdan bo'yin tovlaganda ham ularning shaxsini aniqlash oson kechadi.

M.H. Rustambaev esa quyidagi holatlar jinoyat sodir etgan shaxsni ushlab uchun asos bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi: "Ushlabni amalga oshirayotgan shaxs jinoyat sodir etilayotgan joyda voqea sodir etilayotganning ustidan chiqib qolishi yoki jinoyatni aniq kuzatishi; guvohlar yoki jabrlanuvchi shaxslar jinoyat sodir etgan shaxsni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatishi; subyektning o'zida yo egnidagi kiyimida yoki uning turar joyidagi yoxud unga tegishli buyumlarda yaqqol jinoyat izlarining yoki ashyoviy dalillarning topilishi; jinoyatchini qidirish to'g'risidagi qarorning mavjudligi; jinoyatchining qochib yurganligi bo'lishi mumkin"[15].

Ushbu faktik ma'lumotlardan kuzatish mumkinki, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni ushlab choralari ko'ruvchi shaxsga yoki boshqa fuqarolarga ijtimoiy xavfli tajovuzni keltirib chiqarmasa unga nisbatan zarar yetkazib ushlab choralari ko'rishga yo'l qo'yilmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy xavfli qilmishni oldini olish maqsadida zarar yetkazish asosi xususida mualliflarning fikrlari turlicha. Ya'ni, olimlar jinoyat-huquqiy zarar yetkazishning asosi sifatida shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish yoki jinoyat sodir etilganligi yoxud sodir etilishi mumkin deb hisoblaydilar. Biroq, tezkor topshiriqni bajarish vaqtida zarar yetkazish amaliyotda tegishli xodim tomonidan qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganiga, u tomondan qanday darajada zarar yetkazish mumkinligi masalasi muammoligicha qolib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, qonunda tezkor topshiriqni bajarish vaqtida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish yoki boshqacha zarar yetkazish chorasini qo'llash asosi va shartlariga oydinlik kiritishni talab etadi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон ССР нинг Жиноят кодекси. 1959 йил. Ўзбекистон Республикасининг 20.06.1990 йил 87-XII-сон "Ўзбекистон Республикаси айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида" ги Қонуни билан ўз кучини йўқотган. (Criminal Code of the Uzbek SSR. 1959. Repealed by the Law of the Republic of Uzbekistan dated 20.06.1990 No. 87-XII "On amendments and additions to some legislative acts of the Republic of Uzbekistan").
2. Матчанов А.А. К вопросу совершенствования розыскной функции следователя и сотрудников уголовного розыска // Ўзбекистон Республикасида суд-ҳуқуқ соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар: бугунги ҳолати, муаммо ва ечимлари: республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т., 2008 –Б. 104-106. (Matchanov A.A. On the issue of improving the search function of the investigator and employees of the criminal investigation department//Reforms in the field of justice in the

- Republic of Uzbekistan: current status, problems and solutions: Proceedings of the Republican scientific-practical conference. –Т., 2008 –Р. 104-106)
3. Баулин Ю.В. Право граждан на задержание преступника. Учебник. – Харьков., 2003. – Б.319-325. (Baulin Yu.V. The right of citizens to arrest a criminal. Textbook. — Kharkov., 2003. — P.319-325.)
  4. Попов А. Н. Обстоятельства, исключающие преступность деяния. –, 1998.– С. 28. (Поров А. N. Circumstances excluding criminality., 1998. — P. 28.)
  5. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Руҳий касалликка чалинган шахсларга нисбатан тиббий йўсиндаги чораларни қўллаш бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 2008 йил 12 ноябрь 23-сонли қарори. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Олий судининг бирлашган тахририяти, 2009. – Б. 47. (Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan N. 23 of November 12, 2008 “On Judicial Practice in Applying Medical Measures to Persons with Mental Illness”. — Т .: United edition of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2009. — P. 47.)
  6. Файзуллаева Т.Х. Тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларини таъминлаш муаммолари. Юрид. фан. ном. дис. автореф. – Т., 2009. – Б. 25. (Fayzullaeva T.X. Problems of providing compulsory medical measures. cand of jurisp. abstr. — Т., 2009. — P. 25.)
  7. Сидоров Б В. Причинение вреда при задержании преступника // Советская юстиция, 1990. – № 3. – С. 10–13. (Sidorov B V. Causing harm during the arrest of a criminal // Soviet justice, 1990. — No. 3. — P. 10–13.)
  8. Курс уголовного права. Общая часть. Учебник для ВУЗов. Том 1. /Под ред. В.С. Комиссаров. – М. 2002. – С. 289. (Course in criminal law. A common part. Textbook for universities. Volume 1. / Ed. V.S. Komissarov. — М. 2002. — P. 289.)
  9. Кадников Н. Г. Обстоятельства, исключающие преступность деяния: Учебное пособие. – М., 1998. – С. 24. (Kadnikov N. G. Circumstances excluding the criminality of the act: a textbook. — М., 1998. - P. 24.)
  10. Тишкевич И.С. Оборона и необходимость // Законность. 1992, – № 4. – С. 28–31. (Tishkevich I.S. Defense and necessity // Legality. 1992, — No. 4. — P. 28–31.)
  11. Турецкий Н.Н. Теоретические проблемы обстоятельств, исключающих преступность деяния, по уголовному законодательству республики Казахстан. Автореферат.док.юр.наук. – Санкт-Петербург, 2005. – С. 37. (Turetsky N.N. Theoretical problems of the circumstances excluding the criminality of the act, according to the criminal legislation of the Republic of Kazakhstan. Abstract of doc. Yur. Sciences. — St. Petersburg, 2005. — P. 37.)
  12. Иванов А.Б. Институт причинения вреда при задержании лица, совершившего преступление. Автореф. дис.канд. юрид. наук. – М., 1999. – С.13. (Ivanov A.B. The institution of causing harm during the arrest of a person who has committed a crime. Author’s abstract. Dis. Cand. jurid. sciences. — М., 1999. - p. 13.)
  13. Баулин Ю.В. Обстоятельства, исключающие преступность деяния. – Харьков, 1991. – С. 274–275. (Baulin Yu.V. Circumstances precluding the criminality of the act. — Kharkov, 1991. — P. 274–275.)
  14. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. – 2-е. Изд., перераб, и доп. /Отв. ред. В.И. Радченко, науч. Ред. А.С. Михлин, В.А. Казакова. – М., 2010. – С. 59. (Comments on the Criminal Code of the Russian Federation. — 2nd. Ed., Revised, and add. / Resp. ed. IN AND. Radchenko, scient. Ed. A.S. Mikhlin, V.A. Kazakov. — М., 2010. -- P. 59.)
  15. Рустамбоев.М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм. –Т., 2006. – Б. 36–37. (Rustambоеv.M.X. Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. General section. –Т., 2006. — P. 36–37.)

# LEGALSCIENCES.UZ

*2-jild 1-son 2026-yil*

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALALARI

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES

**“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”

mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog’lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).